

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 9-noyabr, shanba,
129 (24.006)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Farzand tarbiyasida shaxsiy ibrat nazoratdan ming chandon yaxshiroq

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

E.O.Turdimovni Samarqand viloyati hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Erkinjon Oqbutayevich Turdimov** Samarqand viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 5-noyabr

Viloyat hokimining QARORI

Alimova Gavhar Zayirovnani Kattaqo‘rg‘on shahar hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Alimova Gavhar Zayirovna** Kattaqo‘rg‘on shahar hokimi lavozimiga tayinlansin.

2. Mazkur qaror xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Umarov Fazliddin Karimovichni Samarqand shahar hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Umarov Fazliddin Karimovich** Samarqand shahar hokimi lavozimiga tayinlansin.

2. Mazkur qaror xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Jabborov Botir Shukurovichni Urgut tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Jabborov Botir Shukurovich** Urgut tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.

2. Mazkur qaror xalq deputatlari Urgut tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Hamdamov Muzaffar Yazdonqulovichni Paxtachi tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Hamdamov Muzaffar Yazdonqulovich** Paxtachi tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.

2. Mazkur qaror xalq deputatlari Paxtachi tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Rahmonov Sherzod Shuhratovichni Past Darg‘om tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Rahmonov Sherzod Shuhratovich** Past Darg‘om tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.

2. Mazkur qaror xalq deputatlari Past Darg‘om tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Qudratov Sherzod Asatovichni Oqdaryo tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Qudratov Sherzod Asatovich** Oqdaryo tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.

2. Mazkur qaror xalq deputatlari Oqdaryo tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Jabborov Isroil Ismoilovichni Payariq tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Jabborov Isroil Ismoilovich** Payariq tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.

2. Mazkur qaror xalq deputatlari Payariq tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Usmonov Sirojiddin Xayrulayevichni Samarqand tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Usmonov Sirojiddin Xayrulayevich** Samarqand tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.

2. Mazkur qaror xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Berdiqulov Sirojiddin Valiqulovichni Nurobod tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Berdiqulov Sirojiddin Valiqulovich** Nurobod tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.

2. Mazkur qaror xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Buranov Sherbek Erkinovichni Narpay tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Buranov Sherbek Erkinovich** Narpay tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.

2. Mazkur qaror xalq deputatlari Narpay tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi E.TURDIMOV
2024-yil 5-noyabr

(Davomi 2-sahifada) »»



Hokimlar tasdiqlandi

6-7 noyabr kunlari xalq deputatlari tuman va shaharlar Kengashlarining yettinchi chaqiriq birinchi sessiyalari o‘tkazildi.
Sessiyalarda viloyat hokimining tuman va shahar hokimini tayinlash to‘g‘risidagi qarorlari ko‘rib chiqilib, tasdiqlandi.

Jumladan, xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining birinchi sessiyasida viloyat hokimi E.Turdimov ishtirok etdi va Fazliddin Umarov shahar hokimi etib tayinlaganini ma’lum qilib, ushbu qarorni deputatlar muhokamasiga taqdim etdi.

Shahar hokimligiga nomzod hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha taqdimot qildi. Deputatlar nomzod haqida o‘z fikrlarini bildirdi.

Sessiyada viloyat hokimining Fazliddin Karimovich Umarovni Samarqand shahar hokimi etib tayinlash to‘g‘risidagi qarori tasdiqlandi.



HUQUQNI E’TIROF ETISH UCHUN XATLOV BOSHLANDI

“O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonun 2024-yil 8-noyabrdan kuchga kirdi.

Kadastr agentligi ma’lumotiga ko‘ra, uning ijrosi doirasida o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer maydonlarida qurilgan ko‘chmas mulk obyektlarini aniqlash maqsadida 2024-2025-yillarda xatlov qilinadigan mahallalar reja-jadvali tasdiqlangan. Fuqarolar jadval bilan Kadastr agentligining kadastr.uz sayti orqali tanishishi mumkin. Shuningdek, xabarda “Agar sizning mahallangiz jadvaldan chiqmasa, xavotirga tushmang. Demak, u 2025-yildan keyingi davrda xatlovdan o‘tkaziladi”, deya qo‘shimcha qilingan.

Qonunda fuqarolar quyidagi ko‘chmas mulklarni o‘z nomiga (ijara va mulk huquqi asosida) qonuniy o‘tkazib olishi mumkinligi ko‘rsatilgan:

— 2018-yil 1-may kunigacha yakka tartibdagi uy-joy qurib, o‘zboshimchalik bilan egallagan yer hamda undagi bino va inshootlar;

— 2018-yil 1-may kunigacha fuqarolar va tashkilotlar tomonidan hujjatda ko‘rsatilgan maydondan ortiqcha egallangan yer hamda undagi bino va inshootlar;

— “bir martalik aksiya” doirasida huquqlarni e’tirof etish oxiriga yetmagan yer hamda undagi bino va inshootlar;

— 2021-yil 8-iyunga (hokimlarning vakolati bekor qilinguniga) qadar tuman (shahar) hokimlari qarori bilan ajratilgan, lekin viloyat hokimi yoki xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanmagan yer;

— bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turarjoylar hamda ular egallagan yer;

— kichik sanoat zonalari hududiga 2020-yil 9-martgacha joylashtirilgan tadbirkorlarning yeri;

— davlat orderi bilan xususiylashtirilgan binolar va uylar egallagan yer;

— hokim qarori bilan mulk huquqi e’tirof etilgan binolar va uylar egallagan yer uchastkasi.

10-noyabr - Tibbiyot xodimlari kuni



Tibbiyotdagi islohotlar davom etadi

Xalqimizning erkin va farovon yashashi, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan.

(Davomi 4-sahifada) »»

Samarqandga 8 ta elektrobus olib kelindi

Samarqand Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining “Yashil shaharlar” dasturiga qo‘shilgan yurtimizdagi birinchi shahar hisoblanadi. Mazkur loyiha doirasida Samarqand shahar jamoat transporti yo‘nalishlarida elektrobuslarning harakatlanishi belgilangan. Shu maqsadda 100 ta elektrobus olib kelish uchun shartnoma tuzilgan edi.

O‘tgan yil may oyida loyiha asosida dastlabki 6 ta elektrobus olib kelinib, "Temiryo‘l" ABB - Samarqand xalqaro aeroporti” yo‘nalishida aholiga xizmat qilishni boshlagandi. Loyiha asosida yana 8 ta elektrobus keltirildi.

- Joriy yilning noyabr oyida 30 ta elektrobus olib kelish rejalashtirilgan, - deydi viloyat transport boshqarmasi boshlig‘i Ravshan Tojiyev. – Hozircha ularning 8 tasi shahrimizga olib kelindi. Oy yakunigacha 22 ta, yil oxirigacha esa 64 ta elektrobus keltirilishi ko‘zda tutilgan.

Dilmurod TO‘XTAYEV.



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Viloyat hokimining QARORI

Ro‘ziyev Fazliddin Kiranovichni Ishtixon tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Ro‘ziyev Fazliddin Kiranovich** Ishtixon tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.
2. Mazkur qaror xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi **E.TURDIMOV**
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Bobonazarov Bahodir Kadirovichni Toyloq tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Bobonazarov Bahodir Kadirovich** Toyloq tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.
2. Mazkur qaror xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi **E.TURDIMOV**
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Nasriddinov Jamshid To‘lqinovichni Kattaqo‘rg‘on tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Nasriddinov Jamshid To‘lqinovich** Kattaqo‘rg‘on tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.
2. Mazkur qaror xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi **E.TURDIMOV**
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Astonov Samandar Mustafokulovichni Bulung‘ur tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Astonov Samandar Mustafokulovich** Bulung‘ur tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.
2. Mazkur qaror xalq deputatlari Bulung‘ur tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi **E.TURDIMOV**
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Sobirov Qayum Hamroyevichni Jomboy tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Sobirov Qayum Hamroyevich** Jomboy tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.
2. Mazkur qaror xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi **E.TURDIMOV**
2024-yil 5-noyabr

* * *

Viloyat hokimining QARORI

Shakarboyev Dilshod Davronovichni Qo‘shrabot tumani hokimi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 124-moddasi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq QAROR QILAMAN:

1. **Shakarboyev Dilshod Davronovich** Qo‘shrabot tumani hokimi lavozimiga tayinlansin.
2. Mazkur qaror xalq deputatlari Qo‘shrabot tumani Kengashi sessiyasi tasdig‘iga kiritilsin.

Viloyat hokimi **E.TURDIMOV**
2024-yil 5-noyabr

Faqat Samarqandda o‘tkazilayotgan jarrohlik

Yoki koinot kabi sirli jumboqning yechimini topayotgan shifokorlar

Mashhur neyrojarrohlardan biri “Inson miyasi xuddi tunda yulduzlar qoplagan osmon va atrofimizdagi koinot kabi tabiatning sirli jumbog‘idir” degan edi. Bu sirli jumboqni o‘rganish, tahlillash, davolash kabi mushkul mas’uliyatni bo‘yniga olayotgan shifokorlar shu bugunga qadar sanoqli edi. Bugun ularning soni ham, bu mas’uliyatni bo‘yniga olayotgan shifokorlarning ish faoliyatiga e’tibor ham ko‘paymoqda. Xususan, viloyatda 2022-yildan boshlab Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzurida Neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi faoliyat yuritmoqda. Moddiy-texnik baza yaxshilanib, kadrlar salohiyatiga e’tibor qaratildi. Ushbu markaz tashkil etilgandan buyon nafaqat Samarqand, balki mamlakatimizda ilk bor bir necha xil murakkab operatsiyalar amalga oshirildi. Xususan, parkinson xastaligini bosh miya chuqur tizimiga chip-implantlar o‘rnatish orqali samarali davolash yo‘lga qo‘yildi. Ushbu operatsiyalar Samarqand davlat tibbiyot universiteti qoshidagi neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi tomonidan amalga oshirilayotir. Samarqand davlat meditsina universiteti neyroxirurgiya kafedrasi mudiri, Jahon-Osiyo, Yevropa, Amerika neyroxirurglar assotsiatsiyasi a’zosi, PhD, dotsent Mansur ALIYEV bilan ushbu jarayon va uning kelgusi istiqbollari haqida suhbatlashdik.



- Mamlakatimizda ilk bor amalga oshirilayotgan chip o‘rnatish orqali davolash tizimini o‘z zimmangizga olayotgan paytda nimadan ko‘proq xavotirlandingiz? Umuman, xavotiringiz bormidi yoki buni navbatdagi bir jarrohlik amaliyoti sifatida qabul qildingizmi?

- Aslida tibbiyot xodimlarida har bir operatsiya oldidan xavotir bo‘ladi. Ayniqsa, tibbiyotning murakkab yo‘nalishi neyrojarrohlik sohasida. Parkinsonni zamonaviy davolash biz an’anaviy usulda amalga oshirayotgan jarrohlik amaliyotlaridan ko‘ra birmuncha yengilroq. Sababi, u asosan zamonaviy texnologiyalar yordamida bajariladi, vaholanki, bizda bosh miya bilan bog‘liq qator jarrohlik amaliyotlari natijasi faqatgina jarrohning tajribasi, mohirligiga bog‘liq bo‘ladi.

- Meditsinada neyroxirurgiya eng nozik va murakkab yo‘nalishlardan biri. Aynan shu sohani tanlashingizga biron sabab bo‘lganmi? Umuman, shifokorlik bolalikdagi orzuingizmi yoki ota-onangizning istagimi?

- Bolalagimda o‘z bilganimcha uy hayvonlarini davolaganim yodimda. Ular mening parvarishimdan so‘ng rostdan ham tuzalib, avvalgi holiga qaytardi. Shuning uchun ota-onam shifokor bo‘lishim haqida gapirishardi. Kimyo, biologiya fanlarini yaxshi o‘zlashtirib, olimpiadalarda yuqori o‘rinlarni egallay boshlaganimda allaqachon shifokor bo‘laman, degan qat’iy ishonchim bor edi.

Umuman, tabiatan shunaqa fe’lim bor – har qanday tanlov imkoniyati tug‘ilganda murakkablikni tanlash istagi kuchli bo‘lgan. Shifokorlik kasbining o‘zi juda qiyin, ammo uning ichidan yanada murakkabini tanlashimga ham shu fe’lim sabab bo‘lgan, deb o‘ylayman. Maqsadim sari qadam tashlab, Samarqand davlat meditsina instituti talabasi bo‘lgach, sohani yaxshiroq egallashim kerakligini angladim. Hali talabalik yillaridayoq shoshilinch tez tibbiy yordam markazida navbatchilikda turdim. Ustozlar o‘gitini o‘zlashtirish, amaliyotda bemorlar qabul qilish kabi jarayonlar davomida soha rivojida xorij bilan aloqalarni yaxshilash muhimligini anglab yetgan holda ingliz tilini o‘rgandim. Neyrojarrohlik bo‘yicha ustozim Abdurahmon Mamadaliyev etagidan mahkam tutdim, u kishining yo‘l-yo‘riqlari asosida sohaning nozikliklarini o‘zlashtira boshladim.

- Bu izlanishlaringiz natijasi Samarqanddagi neyroxirurgiya sohasidagi yangiliklarga ham qaysidir ma’noda sabab bo‘lgani rostmi?

- Bugun mamlakatimiz rahbari tomonidan tibbiyotga katta e’tibor qaratilishi tufayli neyroxirurgiya sohasi Samarqandda ham ancha rivojlandi. Avvalo, Samarqand davlat tibbiyot universiteti qoshida neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Hozirda 50 o‘ringa mo‘ljallangan ushbu markazda 16 nafar neyroxirurg faoliyat ko‘rsatyapti. Bundan besh-olti yil avval ularning soni bor-yo‘g‘i 4-5 nafarni tashkil etardi. Shuningdek, 20 nafar talaba klinik ordinaturada aynan shu yo‘nalishda tahsil olmoqda. Bir paytlar neyroxirurgiya sohasida bir haftada 3-4 ta operatsiya amalga oshirilgan bo‘lsa, bugunga kelib, har kuni samaradorligi yuqori bo‘lgan 8-9 ta operatsiya o‘tkazilyapti. Tabiiyki, bu raqamlarni eshitgan kishi borki, ilgari bu xastaliklar bo‘lmaganmi, bo‘lsa, qanday davolangan, deya hayron qoladi. Kasallik bor edi, ammo uni samarali davolash uchun yetarli shart-sharoit yo‘q edi, mutaxassis yetishmasdi.

- Siz bir necha davlatlarda malaka oshirib qaytgansiz va qator davlatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ishlarida bosh-qosh bo‘ldingiz. Bu hamkorliklar bugun o‘z samarasini berib, Samarqandda ham bu sohada qator yangiliklar amalga oshirilayotir. Ayting-chi, siz xorijdagi davlatlardagi amaliyotingiz davomida o‘zimizning meditsinamiz haqida qanday xulosalarga keldingiz? Qanday kamchiliklardan xalos bo‘lish kerak, deb hisoblaysiz?

- Bilasizmi, biz uzoq yillar davomida faqatgina yaqin atrofimizdagi davlatlar bilan hamkorlik o‘rnatdik va ularning tajribasi asosida faoliyat yuritdik. Bu tajriba ham aslida katta ilmiy-amaliy maktab sanaladi. Ammo keyingi 4-5 yil ichida meditsinamiz boshqa sohalar singari xorij bilan keng ko‘lamli aloqalarni boshladi va biz mutaxassislar tayyorlashdan boshlab, zamonaviy texnologiyalar keltirish kabi jarayonlarda katta bosqichdan o‘tdik. Koreya, Amerika, Xitoy, Germaniya davlatlarida bir necha oylab malaka oshirish davomida angladimki, bizning tibbiyot va xorij amaliyotidagi eng katta farq bu faqatgina zamonaviy tibbiy jihozlarda. Bugun xorijdagi aksar jarrohlik amaliyotlari eng so‘nggi rusumdagi texnologiyalar orqali, inson omili kamroq qo‘llanilayotgan holda amalga oshiriladi. Buning yaxshi tomonlari ko‘p, albatta. Lekin shifokor faqat texnikaga suyanib qolayotgani ham bor gap. Deylik, bizning shifokorlar texnologiyasiz amalga oshirayotgan ba’zi jarrohlik amaliyotlarini xorijlik hamkasblarimiz qilolmasligi mumkin. Chunki u yerda klinikalar apparatlashtirilgan.

- Lekin biz ham borib-borib shunday amaliyotga kelamiz, shundaymi?

- Albatta. Boshqa yo‘l yo‘q, chunki yildan yilga bu texnologiyalarning samaradorligi oshib, deyarli bexato ishlashga o‘tmoqda. Bir paytlar epilepsiyani jarrohlik usulida davolash haqida tasavvur ham qilolmasdik. Bugun o‘zimizda bu jarrohlik amalga oshirilyapti.

- Markaz rahbari sifatida yaqin yillarda sohada amalga oshirilishi mo‘ljallanayotgan rejalarga to‘xtalib o‘tsangiz.

- Markaz kengayib, 150 o‘ringa mo‘ljallanadi. Shuningdek, bugun dolzarb bo‘lgan qator xastaliklar, xususan, bosh miya faoliyati o‘smalarini xirurgik davolash, bolalar, – funksional neyroxirurgiyasi, insultlar xirurgiyasi kabi yangi bo‘limlar tashkil etiladi. Parkinson xastaligini davolash bo‘yicha shu yilning o‘zida 32 nafar bemorga chip o‘rnatilgan bo‘lsa, hali minglab bemorlar bu xastalikdan aziyat chekmoqda. Nafaqat mamlakatimiz, balki qo‘shni respublikalardan ham davo izlab kelayotgan bemorlar ko‘paymoqda. Rejalarimiz katta, falajlik holatini davolash, umurtqa pog‘onasida asab tolalari shikastlanishi bilan bog‘liq xastaliklarni va boshqa ko‘plab kasalliklarni ilk bor o‘zimizda davolash uchun sa’y-harakat olib boryapmiz. Tabiiyki, bu viloyat hokimligi, tibbiyot universitetimizning qo‘llab-quvvatlovi va yordami bilan bo‘layotganini alohida ta’kidlashni istardim.

- Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat!

Gulruh MO‘MINOVA suhbatlashdi.

Bizning suhbat

Allergiya: Sabab, oqibat va davosi haqida

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun dunyo aholisining 30-40 foizi, ya’ni har uchinchi odam allergik kasalliklardan aziyat chekadi. Iqlim o‘zgarishi, global isish, ekologik vaziyatning yomonlashishi kabi qator omillar sababli yurtimizda ham allergik bemorlar soni ortib bormoqda. Xo‘sh, bu kasallikni chegaralab bo‘ladimi? Undan qanday himoyalanish kerak? Viloyat bosh allergologi Javohir Nasimov shu va boshqa savollarimizga javob berdi.



- Allergik kasallik o‘zi nima? U qanday kelib chiqadi?

— Oddiy qilib aytganda, allergiya - bu organizmning tashqi va ichki muhitga nisbatan reaksiyasi hisoblanadi. Bu jarayon organizmga chang, turli xil dori vositalari yoki kimyoviy moddalar tushganida boshlanadi. Oddiy gul changining burun bo‘shlig‘iga tushishini eslaylik. U kishida burun oqishi va aksirishni chaqiradi. Agar chang ko‘zimizga tushsa, qizarishi va yoshlanishi mumkin, ya’ni organizm o‘ziga notanish bo‘lgan moddani tezroq chiqarib tashlashga harakat qiladi.

- Allergik kasalliklar faqat kuz va bahor faslida avj oladi, deyishadi. Bu to‘g‘rimi?

- Umuman olganda, insonda mavsumiy allergiya, allergik rinit yoki taomlarga allergiya bo‘lishi mumkin. Oxirgisi mavsum tanlamaydi va yil davomida kuzatiladi.

Mavsumiy allergiyaga keladigan bo‘lsak, u asosan bahor va kuz oylarida boshlanadi. Uning qo‘zg‘atuvchisi bahorda gullaydigan turli xil mevali o‘simliklarning yoki kuzda gullaydigan yovvoyi o‘tlarning changi hisoblanadi. Organizmda ularga reaksiya turlicha bo‘lishi mumkin. Shuningdek, mavsumiy allergiyaning klinik belgilari ham har xil bo‘ladi. Burun bitishi, burundan suv kelishi, aksirish, ko‘zlar va tomoqning qichishi, yo‘tal va nafas siqishi shular jumlasidan.

- Allergik kasalliklar bilan bog‘liq vaziyat ta’kidlanayotganidek yomonmi?

- XXI asr allergik kasalliklar asri deb atalmoqda. Chunki ekologik muhit oldingiga nisbatan ancha yomonlashgan hamda insonlar iste’mol qilayotgan aksar mahsulotlarni tayyorlashda ham kimyoviy moddalarning ulushi ortib bormoqda. Bularning barchasi allergik kasalliklarga olib keladi. Aytish joizki, kasallik tobora yosharib bormoqda. Ilgari allergiya ko‘proq kattalarda kuzatilgan bo‘lsa, hozir yangi tug‘ilgan bolalarda ham allergologik holatlar uchramoqda. Bunga sabab onaning homiladorlik vaqtida noto‘g‘ri ovqatlanishi yoki shifokor nazoratisiz turli dorilarni qabul qilishi hisoblanadi.

O‘z holida ham allergiya nasliy kasallik hisoblanadi va u gendan genga o‘tishi mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan omillar esa uning erta qo‘zg‘alishi yoki zo‘rayishiga olib keladi.

- Ayrimlar shifokorga ko‘rinmay turib, allergiyaga qarshi turli dori vositalarini iste’mol qilib yuradi...

- Allergiyani shifokorga murojaat qilmasdan, o‘zboshimchalik bilan davolash mumkin emas. Sababi allergiya oddiy kasallik hisoblanmaydi. Ko‘pchilik allergiyani shamollash bilan adashtiradi. To‘g‘ri, allergik kasallik bilan shamollashning belgilari o‘xshash. Har ikkisida ham bemorning burnidan suv kelishi, tomog‘i qichishi yoki aksirish holatlari kuzatilishi mumkin. Bu yerda farqni tana haroratining ko‘tarilishi va mavsumiylik orqali aniqlash mumkin. Ya’ni, shamollashda mavsumiylik bo‘lmaydi hamda u tana haroratining ko‘tarilishi bilan kechadi. Aksi bo‘lsa, sizda allergiya bo‘ladi. Buni bilmaganlar turli keraksiz, ba’zida salomatligini battar yomonlashtiruvchi dorilarni iste’mol qiladi. Shu sababli allergiyasi bor bemor shifokorga murojaat qilishi va faqat shifokor nazorati ostida davolanishi lozim.

- Allergiyasi bor insonlar iste’mol qilishi mumkin bo‘lmagan umumiy mahsulot bormi?

- Ha, bor. Sut mahsulotlari, tuxum, baliq, dengiz mahsulotlari, yong‘oqlar, bug‘doy, kunjut va soya qo‘shib tayyorlangan mahsulotlar iste’mol qilish tavsiya etilmaydi.

Bundan tashqari, skarifikatsion va laborator usullar bilan bemorning qanday mahsulotlarga allergiyasi borligini aniqlash mumkin. Shunga qarab, unga ma’lum bir mahsulotni iste’mol qilmaslik tavsiya etiladi.

Mavsumiy allergiyasi bo‘lgan bemorlar ishda yoki ko‘chada yurganida tibbiy niqobda bo‘lishi hamda tomoq, burun va ko‘zlarni tez-tez yuvib turishi lozim.

- Yosh bolalarda allergik kasallik bo‘lmasligi uchun nima qilish lozim?

- Aytib o‘tilganidek, allergiya aslida nasliy kasallik hisoblanadi. Ota yoki onada allergiya mavjud bo‘lsa, ularning farzandida ham kasallikka moyillik kuzatiladi. Lekin hayoti davomida unda allergiya qo‘zg‘almasligi ham mumkun.

Buning uchun nafaqat bolalar, balki ularning onalari ham homiladorlik davrida GMO (genetik modifikatsiyalangan organizmlar), turli kimyoviy yoki allergiya chaqiruvchi mahsulotlarni iste’mol qilmasligi lozim. Bola tabiiy, ya’ni ona suti bilan ikki yil oziqlanishi hamda vitaminlarga boy, organizm uchun foydali mahsulotlarni iste’mol qilishi lozim.

- Allergiyani davolamasa, oqibati qanday bo‘ladi?

- Uzoq vaqt davom etgan allergiya og‘ir oqibatlarga olib keladi. Misol uchun, allergik rinit kasalligi uzoq vaqt davom etsa, o‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligi – astmaga olib keladi.


Odamlar ko‘p hollarda e’tibor bermay keladigan allergik kasallik insonning hayot tarziga nojo‘ya ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday ekan, salomatligimizga e’tiborsiz bo‘lmasligimiz va eng muhimi, jarayonda asosiy e’tiborni davolashga emas, profilaktikaga qaratishimiz kerak.

Umida SATTOROVA suhbatlashdi.

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI MA’MURIYATI VA KASABA UYUSHMA QO‘MITASI:

Qutlov

O‘z qasamyodiga, kasbi va burchiga sadoqat bilan mehnat qilayotgan tibbiyot xodimlariga hamda korxona va tashkilotlarda xodimlarning kasbiy, mehnatga oid, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilib kelayotgan kasaba uyushmalari xodimlariga sihat-salomatlik, oilaviy baxt tilaymiz!
Sharafli va mas’uliyatli kasbingizda zafarlar yor bo‘lsin!





10-NOYABR
TIBBIYOT XODIMLARI KUNI

11-NOYABR
KASABA UYUSHMALARI KUNI

Bayramingiz muborak bo‘lsin, aziz hamkasblar!

Xotira

Ustoz qalbimizda

Azaldan ustoz-murabbiylarga o‘zgacha hurmat-izzat ko‘rsatib kelingan. Chunki ustoz yodga olinganida shogirdlar ko‘nglida chuqur ehtirom va minnatdorlik tuyg‘ulari, ado qilib bo‘lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo‘ladi. Samarqand davlat chet tillar instituti professori, tilshunos olim O‘rol Usmonov ham shunday ehtiromga loyiq ustozlardan edi.



O‘rol Usmonov 1945-yilda Past Darg‘om tumanida tug‘ilgan. Qishlog‘idagi 16-o‘rta maktabni tugatib, Samarqand davlat universitetining chet tillar fakultetiga o‘qishga kirdi. Talabalik davrida o‘zining yuqori bilim va iqtidorini namoyon etdi. Past Darg‘om tumanidagi 21-maktabda ingliz tili o‘qituvchisi bo‘lib ishladi. 1965-yilda Samarqand davlat pedagogika institutiga ishga taklif etildi va bo‘lajak pedagoglarga ingliz tili grammatikasi fanidan bilim bera boshladi. Institut rahbariyati uning tirishqoqligi va tashkilotchiligini e’tiborga olib, dekan o‘rinbosari lavozimiga tayinladi. Keyinchalik Samarqand davlat chet tillar institutida ham kafedra mudiri, ingliz tili fakulteti dekani kabi ma’suliyatli vazifalarda faoliyat ko‘rsatdi.

O‘.Usmonovning ilmiy ishlarida sintaktik-semantik tahlilni o‘rganish asosiy maqsadga aylandi. U 1983-yilda Kiyev davlat universitetida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Olimning bu yo‘nalishdagi izlanishlari natijalari u nashr etgan maqolalar turkumida, o‘quv qo‘llanma va uslubiy tavsiyanomalarda qayd etilgan bo‘lib, sintaktik semantika va komponentlar tahlili nazariyasini O‘zbekistonda ham keng rivojlantirdi. Natijada ustozga shogird tushish istagida bo‘lgan yosh olimlar soni ko‘paydi. Olim rahbarligida 24 nafardan ziyod tadqiqotchi nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildi.

O‘.Usmonov "O‘zbekiston Respublikasi xalq talimi a’lochisi", “Mehnat faxriysi” va “Oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlandi.

Ustozning do‘stlari va shogirdlari qalbidagi yorug‘ xotiralar o‘zi alohida olam. U halolligi, mehnatsevarligi, yoshlarga xayrixoh va mehribonligi bilan ajralib turardi. Har bir suhbatda kishining ruhiyatini ko‘tarishga harakat qilardi. Umrining oxirigacha xolis fikrlashdan, odamlarga yaxshilik qilishdan to‘xtamadi.

Ustozni eslaganda ko‘z o‘ngimizda yuksak fazilatlar egasi, ziyoli, bilimi va mehridaryo inson gavdalanadi. Umrining oxirigacha uning ilmga sadoqati, yosh avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalash borasidagi ishlari barchamiz uchun ibratdir. Shu bois ham domla bugun jisman oramizda bo‘lmasa-da, ruhan qalbimizda yashamoqda.

Gulnoza BOLTAQULOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti kafedra mudiri, professor.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Ibragimov Baxrom Asadovichga (2021-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 18-uy, 51-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Norkulova Dilfuza Zoxitovnaga (2024-yil 3-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Aliyev Shokir Ibragimovichga (2023-yil 22-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog‘dod ko‘chasi, 1-uy, 3-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Asliyev Raxmon Davronovichga (2014-yil 18-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Fayziyev Ma’rufjon Abdunayimovichga (2022-yil 2-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko‘chasi, 85-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xafizov Ilxom Baxronovichga (2022-yil 14-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Xamrayev Ulash Tursunovichga (2022-yil 9-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko‘chasi, 3-uy, 35-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Ablakulova Maxbubaga (2022-yil 26-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy, 21-xona.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Tamiqayev Shamsitdin Sadullayevichga (2020-yil 17-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Kabirova Svetlana Buriyevnaga (2023-yil 22-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo‘l ko‘chasi, 9-“B” uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Akramov Asatillo Axtamovichga (2016-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Ibragimova Matlab Isomovnaga (2024-yil 15-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Mamatkulov Xamrakulga (2021-yil 23-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko‘chasi, 85-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Idrisov Yakubga (2024-yil 30-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog‘dod ko‘chasi, 1-uy, 3-xona.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Qudratova Sojida Abdiyevnaga (2024-yil 27-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko‘chasi, 3-uy, 35-xona.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasida marhum Xaydarov Asror Xalikovichga (2020-yil 3-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag‘rikenglik ko‘chasi, 4-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevish notarial idorasida marhum Tashkuvatova Zebinesoga (2020-yil 15-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevish notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy 4-xonadon.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Babadjanov Odiljon Xamidovichga (2023-yil 15-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog‘dod ko‘chasi, 1-uy, 3-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Bazarova Mutabarga (2022-yil 30-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Kazakova Rano Pardayevnaga (2024-yil 22-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevish notarial idorasida marhum Saibov Abdugafar Ravshanovichga (2022-yil 29-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevish notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy 4-xonadon.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Bobomurodov Abdullo Nurulloyevichga (2023-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Djumayev Xotam Ergashevichga (2014-yil 22-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko‘chasi, 80-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi “GOLD GOOD WORK” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 304194784) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.



Tibbiyotdagi islohotlar davom etadi

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Jumladan, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, tibbiyotga yo‘naltiriladigan mablag‘lar hajmini ikki barobar oshirish, onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta’minlash, onkologiya, yurak-qon tomir, diabet va nafas yo‘llari kasalliklari bo‘yicha erta o‘limni 2,5 barobar kamaytirish, sil kasalligi bilan kasallanish darajasini pasaytirish, diabet va yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlarni davolash bilan to‘liq qamrab olish kabi muhim maqsadlar va samaradorlik ko‘rsatkichlari ko‘zda tutilgan.

Mazkur maqsadlarga erishish borasida viloyatimizda ham zarur chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bugun viloyatimizning 4 milliondan ortiq aholisiga 41 ta tibbiyot muassasasi, 250 ta birlamchi tibbiy xizmat shoxobchalari xizmat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, yuzlab xususiy tibbiy muassasalar ham xalqimizga yuqori sifatli tibbiy xizmatni taklif etmoqda. Bularga qo‘shimcha ravishda 2024-2025-yillarda yana 85 ta yangi tibbiyot muassasasi ochish rejalashtirilgan. Ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish uchun sohaga davlat tomonidan 1,5 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi.

Sohani rivojlantirishga qaratilgan e’tibor natijasida shu paytgacha xorijdagina amalga oshirilgan yuqori texnologiyali jarrohlik operatsiyalari o‘zimizda bajarilmoqda. Jumladan, respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filalida yilning birinchi yarmida yurak-qon tomir kasalliklarini davolash bo‘yicha 235 ta murakkab jarrohlik amaliyoti va 3777 ta endovaskulyar muolajalar amalga oshirildi. Ayniqsa, koronaografiya va stentlash amaliyotlari orqali bemorlar hayoti saqlab qolinmoqda.

Strategiyada 2025-yilgacha yurak-qon tomir va onkologik kasalliklarni erta aniqlash uchun 6,7 milliondan ortiq kishini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish rejalashtirilgan. Bu borada viloyatdagi muassasalar joylarga chiqib, eng olis qishloqlar aholisini ko‘rikdan o‘tkazmoqda. Ko‘rik natijalari asosida kasallik aniqlangan yurtdoshlarimiz ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlarda sog‘lomlashtirilmoqda.

Onkologiya va onkogematologiya sohasidagi rivojlanishlar tufayli saraton kasalliklarini erta bosqichda aniqlash va samarali davolash choralari ko‘rilmoqda. Respublika onkologiya va radiologiya ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazi Samarqand filiali ikki yil avval zamonaviy mammograflar bilan jihozlanib, aholiga yuqori sifatli tekshiruv va davolash xizmatlarini taqdim etmoqda. Muassasaga davlat tomonidan 4,5 milliard so‘mlik yangi uskunalar olib berildi.

Strategiyaning yana bir muhim yo‘nalishi shoshilinch tibbiy yordam tizimini rivojlantirishdir. Keyingi yillarda Samarqand viloyati shoshilinch tibbiyot yordam xizmati avtoparki yangilandi va bugungi kunda foydalanilayotgan 500 ta tibbiy yordam avtomobilining aksariyati yangi hisoblanadi. Tizimni yanada rivojlantirish uchun yil yakunigacha qo‘shimcha 100 ta zamonaviy avtomobil xarid qilish kutilmoqda.

Bu sa’y-harakatlarning barchasi xalqimizga zamon talablariga mos, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan. Bunda samarqandlik tibbiyot xodimlari ham faol ishtirok etmoqda va bu biz uchun sharaf.

Suhrob ZAYNIYEV,
viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i.

11-noyabr – O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni

Maqsadimiz – inson manfaatini ta’minlash

Bugun ijtimoiy davlat qurish g‘oyasi yurtimizdagi barcha sohalar faoliyatida o‘z aksini topmoqda. Xoh u davlat, xoh nodavlat tashkiloti bo‘lsin, maqsad bir – jamiyatda inson qadrini oshirish, uning munosib hayot kechirishi uchun sharoit yaratish. Ayni maqsad kasaba uyushmalari faoliyatining ham asosiy yo‘nalishi hisoblanadi.

Buni O‘zbekiston Kasaba uyushmalari jamiyat hayotining turli jabhalarini qamrab olayotganligidan ko‘rishimiz mumkin. Xususan, xotin-qizlar turmush sharoitini yaxshilash, bolalar manfaatini himoya qilish, madaniyat, san’at, sport sohalarini rivojlantirish, davlat dasturlari ijrosini ta’minlash va boshqa yo‘nalishlarda kasaba uyushmalari faol ishtirok etmoqda.

Joriy yilda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi” ijrosini ta’minlashga ko‘maklashish bo‘yicha O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining dasturi qabul qilingan. Shu asosda O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining viloyat kengashi tomonidan ham dastur ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Besh bo‘lim, o‘ttiz banddan iborat dasturda asosiy e’tibor inson manfaatlariga qaratilgan. Bunda xodimlar, jumladan, yoshlar uchun munosib turmush sharoitini yaratish, ularning o‘qishi, ishlashi uchun imkoniyatlarni kengaytirish, keksa avlod vakillari salomatligini ta’minlash, bolalar huquqlarini kafolatlash, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosi doirasida yil boshidan buyon 1723 nafar kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan oilalarning farzandlariga o‘quv qurollari, darsliklar olib berildi. Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan 105 nafar iqtidorli, kam ta’minlangan va chin yetim talabalarga o‘quv shartnoma pullari to‘lovi uchun 357 million so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Turli bayramlar, muhim sanalar munosabati bilan 533 nafar nogironligi bo‘lgan shaxslar va o‘zgalar parvarishiga muhtoj kishilar, korxonalarning sobiq xodimlariga kasaba uyushmalari mablag‘lari hisobidan qariyb 100 million so‘mlik moddiy yordam ko‘rsatildi.

380 nafar ikki yoshdan uch yoshgacha bola parvarishi uchun ta’tilda bo‘lgan yosh onalarga jami 111 million so‘mlik, shundan 63 million so‘m ish beruvchilar va 47 million so‘mdan ziyod kasaba uyushmalari mablag‘lari hisobidan moddiy yordam ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, 2535 nafar kam ta’minlangan, yosh oilalar vakillariga kasaba uyushmalari mablag‘lari hisobidan 592 million so‘m, ish beruvchilar tomonidan 410 million so‘m yordam berilishi ta’minlandi. 32 nafar yosh xodim safarbarlik zaxirasidagi harbiy xizmatga



chaqirilishi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan 139 million so‘m foizsiz ssuda amalga oshirildi. Shuningdek, 57 ta yosh oilaga uy-joy qurish va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni xarid qilish uchun ish beruvchi hisobidan 320 million so‘m ssudalar ajratilishi ta’minlandi.

Davlat tashkilotlari, idoralarda yosh bolali ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay mehnat sharoiti yaratish masalasi doimiy e’tiborda bo‘ladi. Ammo xususiy tadbirkorlik subyektlarining barchasida ham bunday imkoniyat mavjud deb ayta olmaymiz. Shu bois yilning o‘tgan davrida nodavlat mulk shaklidagi 110 ta korxona va tashkilotda jamoa shartnomalariga o‘zgartirish kiritish orqali 132 nafar yosh bolali ayollar uchun oylik maoshi saqlangan holda ish vaqti haftasiga 35 soatdan oshmaydigan qilib belgilandi.

Aytish joizki, joriy yilning o‘tgan davrida besh minga yaqin tadbirkorlik subyektida bo‘lib, ish beruvchi va xodimlar o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib bordik. Natijada 2112 ta huquqiy maqomga ega korxonada boshlang‘ich kasaba uyushma tashkilotlari tuzildi. Bu jamoalarda mehnat qilayotgan 40192 nafar xodim o‘z ixtiyori bilan kasaba uyushmalariga birlashdi.

Kasaba uyushmalari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri - ishchi xodim va ularning oila a’zolarini sog‘lomlashtirish, maroqli hordiq chiqarishini ta’minlash maqsadida yil boshidan buyon viloyatdagi tashkilot hamda korxonalarda faoliyat olib borayotgan 4354 nafar ishchi va ularning oila a’zolariga respublikamizdagi o‘ttizdan ortiq sanatoriyga yo‘llanma berildi. 200 nafardan ortiq urush va mehnat faxriylari, baynalmilalchi jangchilar, ko‘p bolali, kam ta’minlangan oilalarning mehnat qiladigan a’zolari O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi mablag‘lari asosida bepul sog‘lomlashtirildi.

Turizm sohasi ham e’tiborsiz qoldirilgani yo‘q. Xususan, kasaba uyushmalari tashabbusi bilan jamoa shartnomalariga “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida viloyatdan 19590 nafar ishchi-xizmatchi va ularning oila a’zolari sayohati tashkil etildi. Shundan 5600 nafardan ortig‘i kasaba uyushmalari mablag‘lari hisobidan sayohat qildi.

Suhrob RAFIQOV,
O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

11-NOYABR

Qutbiddin MUHIDDINOV – (1906-1983). Urgut tumanida tug‘ilgan. Sharqshunos, tilshunos olim. Filologiya fanlari nomzodi.

12-NOYABR

Enmark SALIHOV – (1934-2022) Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, bastakor.

15-NOYABR

Nasiba ABDULLAYEVA – 1961-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq artisti.

16-NOYABR

Hasan NORMURODOV – (1939-2021). Kattaqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. O‘zbekiston Qahramoni.

Ishchi-xizmatchilar himoyasida

O‘zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi viloyat kengashi 266 ta boshlang‘ich kasaba uyushma tashkiloti orqali 33425 nafar a’zoga kasaba uyushma xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda. Jarayonda davlat dasturlari ijrosini ta’minlash, ishchi-xizmatchilarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.



Xususan, joriy yilning o‘tgan davrida tashkilotimiz tomonidan joylarda kasaba uyushma faoliyatini takomillashtirish maqsadida 230 dan ortiq boshlang‘ich tashkilotlarga amaliy yordam ko‘rsatildi. Yangi tashkil etilgan 110 ta korxonaning 4285 nafar xodimi kasaba uyushma a’zoligiga qabul qilindi.

Ma’lumki, jamoa shartnomasi yakka tartibdagi mehnat va u bilan bevosita bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O‘zbekiston ish beruvchilari konfederatsiyasi o‘rtasida 2023-2025-yillar uchun imzolangan bosh jamoa kelishuvi asosida respublika miqyosida 47 ta tarmoq jamoa kelishuvi tasdiqlangan. Ushbu kelishuvlar doirasida viloyat kengashi tizimidagi tashkilotlarda 266 ta jamoa sharnomasi tuzilib, barcha ishchi-xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy manfaatlari himoyasi ta’minlandi. Shartnomalarga kiritilgan bandlar soni 46753 tani tashkil etib, hozirgacha 45295 tasining ijrosi ta’minlangan. Buning uchun a’zolarning har biriga 10 million so‘mdan ziyod mablag‘ sarflangan.

Viloyat kengashining asosiy vazifalari - bu mehnat munosabatlari, mehnatni muhofaza qilish, xavfsiz va qulay mehnat sharoitlari yaratilishi, kasaba uyushmasi a’zolari va xodimlarning jamoaviy, ijtimoiy-mehnat huquqlarini ifoda etish va himoya qilishdir. Aytish joizki, jamoa shartnomasining “Mehnatni muhofaza qilish bo‘limi”da mehnat muhofazasi bo‘yicha 2997 ta tadbir rejalashtirilgan bo‘lib, o‘tgan vaqtda shundan 2887 tasi bajarildi. 2023-yilda tarmoq tizimida 289 nafar mehnat muhofazasi vakili faoliyat yuritgan bo‘lsa, bu yil ularning soni 342 nafarga yetkazildi.

Shuningdek, joriy yilning o‘tgan davrida xodimlarni dastlabki va davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun 376,2 million so‘m sarflandi. Ularni mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘quv va qayta tayyorgarlikdan o‘tkazish uchun 289,8 million so‘m mablag‘ ajratildi.

Normurod RAJABOV,
O‘zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi viloyat kengashi raisi.

Institut ilmiy hayotida o‘z o‘rni bor

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 8-noyabrdagi farmoni bilan Samarqand davlat chet tillar instituti tashkil etilgan edi. Ushbu sanaga o‘ttiz yil to‘ldi.

Samarqand davlat universitetining chet tillar fakulteti negizida faoliyat boshlagan institutda tuzilgan ilk va yirik kafedralardan biri nemis tili kafedrasi bo‘lgan.

Nega aynan nemis tili, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Chunki sobiq ittifoq davrida yurtimizda xorijiy tillardan nemis tilini o‘qitishga juda katta e’tibor qaratilgan. Bugun ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rganishga qanchalik ustuvorlik berilgan bo‘lsa, o‘sha davrda nemis tili ana shunday maqomda edi. Shuning uchun o‘tgan asr oltmishinchi yillarida Samarqand davlat universiteti chet tillari bo‘limi alohida fakultetga aylanganda va bu yerda xorijiy til sifatida ingliz, nemis, fransuz tillarini o‘qitish yo‘lga qo‘yilganda ham nemis tili kafedrasi asosiy kafedra edi. Tabiiyki, bu ushbu tilda o‘qiydigan talabalar soni ko‘pligi bilan bog‘liq. Nemis tili o‘qituvchilari talabalarga dars berish bilan bir qatorda til o‘qitish metodikasi, germanistika va romanistika yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga ham jalb etildi va xorijiy tillar bo‘yicha Samarqand olimlar maktabiga tamal toshi qo‘yildi.

Shu nuqtai nazardan nemis tilining ilmiy



jihatdan o‘rganilishi va bu tilning xorijiy til sifatida o‘qitilishida institut nemis filologiyasi kafedrasi olimlari munosib hissa qo‘shganligini e’tirof etish lozim.

Bugungi kunda kafedrada professor A. Bushuy, B.Tursunov, B.Rizayev va ushbu maqola mualliflari asos solgan “Tilning sistem-strukturaviy va nominativ-kommunikativ tarzda namoyon bo‘lishi”, “Matnning lingvistik tahlili”, “Grammatik semantika” ilmiy maktablari samarali faoliyat ko‘rsatib, ko‘plab yosh tadqiqotchilar bu maktablar an’analarini davom ettirib kelmoqda. Bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda kafedraning umumiy ilmiy yo‘nalishi “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari”, “Nemis tili o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish” mavzulari hisoblanadi.

Bir necha yildirki kafedramiz “Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar: xorijiy tajriba, istiqbolli izlanishlar va tillarni o‘qitishning innovatsion usullari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarni o‘tkazib kelmoqda. Ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlar sohasida xorijlik mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik qilyapmiz. Kafedramiz Germaniyaning Heidelberg pedagogika universiteti, Frayburg, Humboldt, Mainz, Bochum universitetlari, Leibniz nemis tili instituti bilan aloqa o‘rnatgan. 2020-2021-o‘quv yilida Boxum va Vologda universiteti bilan ilmiy hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Ayni paytda kafedrada xorijlik mutaxassislar – PhD, doktor Manfred Fruhauf, PhD, doktor Renate Margarit Buk hamda DAAD lektori Anton Umbax biz bilan birga faoliyat olib bormoqda.

Ilmiy faoliyati bo‘yicha nemis filologiyasi kafedrasi bugun nafaqat institutda, balki respublika miqyosida ham yetakchi o‘rinda turadi. O‘tgan davr mobaynida kafedra a’zolari orasidan 8 nafar professor, 20 nafar dotsent yetishib chiqdi. Biz bundan buyon ham institut ravnaqi, talabalarimizning yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun bor bilim va tajribamizni ishga solib mehnat qilamiz.

Muxtor BEGMATOV,
Ashur YAXSHIYEV,
SamDChTI nemis filologiyasi kafedrasi professorlari.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 507 nusxada chop etildi. Buyurtma 590. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: F.RO‘ZIBOYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda